



TADQIQOT UCHUN BOSH PIYOZDAN BIRLAMCHI MANBALAR TANLASHDA JAHON GENOFONDIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

G'ulomov Boburbek Baxrombek o'g'li

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti,

Magistrant

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17249704>

ARTICLE INFO

Received: 21st September 2025
Accepted: 25th September 2025
Published: 30th September 2025

KEYWORDS

*piyoz, nav, genofond,
hosildorlik, sentner, kolleksiya.*

ABSTRACT

Ushbu maqolada bosh piyozning Jahon genofondi kolleksiyasidan foydalangan holda boshlang'ish ashiyolarini tanlab olishda ularning kelib chiqishi, o'suv davrining davomiyligi, piyozboshning vazni hamda hosildorlik va mahsuldorlik ko'rsatkichlarini piyozning mahalliy navi ko'rsatkichlariga qiyosiy o'rganish natijasida olingan ma'lumotlar keltirilgan.

Bugungi kunda O'simliklar genetik resurslari ilmiy-tadqiqot instituti Milliy genofondida bosh piyozining 133 ta namunalari tirik holda saqlanib, shundan 20 ta namunalari tadqiqotlarga jalb etilgan.

Tadqiqotlarimiz uchun andoza nav sifatida Respublikamizda rayonlashtirilgan va deyarli barcha viloyatlarda keng yetishtirilayotgan, 2002 yilda rayonlashtirilgan «Zafar» (k-58) navidan foydalanildi. Ushbu navning o'suv davri 148 kun bo'lib, bosh piyozining o'rtacha vazni 120 g, o'rtacha hosildorligi esa 35-38 t/ga ni tashkil etadi.

Tadqiqotlarga jalb etilgan 20 ta kolleksiya namunalarining geografik kelib chiqishi jahonning 6 ta, jumladan O'zbekiston, Fransiya, AQSh, Koreya, Gollandiya va Isroil mamlakatlariga mansub bo'lib, 2024-2025 yillar davomida Respublikamiz tuproq-iqlim sharoitida asosiy qimmatli xo'jalik belgilari bo'yicha chuqur o'rganilgan.

Ertapisharlik belgisi bo'yicha faqat 9 ta, k-19 «Nomsiz» (Fransiya); k-39 «Nomsiz» (Fransiya); k-63, «BGS 72» (AQSh); k-89 «Nomsiz» (Isroil); k-91 «Nomsiz» (Isroil); k-136 «K-3» (Koreya); k-137 «K-4» (Koreya); k-141 (Koreya) namunalari tanlab olindi (1-jadval).

1-jadval

Ertapisharlik belgisi bo'yicha ajratib olingan namunalarning qimmatli xo'jalik belgilari (2021-2023 yy.)

Katalog raqami	Namuna nomi	Kelib chiqishi	O'suv davri, kun	Bosh piyoz vazni, gr.	Umumiy hosildorligi, t/ga	Tovarbob hosildorlik, %
k- 58	Zafar, st	O'zbekiston	148	120	36,8	91,4

k- 19	Nomsiz	Fransiya	135	85	30,2	85,6
k- 39	Nomsiz	Fransiya	140	130	43,6	92,2
k-63	BGS 72	AQSh	138	75	28,5	85,2
k-89	Nomsiz	Isroil	138	80	32,1	86
k-91	Nomsiz	Isroil	145	90	33,5	84,2
k-136	K-3	Koreya	137	70	36,4	89
k-137	K-4	Koreya	125	140	45,9	95,2
k-141	K-8	Koreya	144	95	34,6	87,5

Ushbu namunalardan k-19 «Nomsiz» (Fransiya); k-39 «Nomsiz» (Fransiya); k-63, «BGS 72» (AQSh); k-89 «Nomsiz» (Isroil); k-136 «K-3» (Koreya); k-137 (Koreya) va k-141 (Koreya) namunalar «Zafar» andoza naviga nisbatan 8-20 kun, k-91 «Nomsiz» (Isroil) va 141 «K-8» (Koreya) namunalar esa 3-4 kun oldin pishib yetilganligi aniqlandi.

Vegetatsiya davomiyligiga bog'liq holda bosh piyozning mahsuldor ko'rsatkichlari bir qancha farqli ko'rsatkichlar namoyon bo'ladi. Ertapisharlik ko'rsatkichlari ob-havoning turli noqulay ta'sirlari natijasida kutiladigan hosildorlik ko'rsatkichlariga bir muncha ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bosh piyoz kolleksiyasidan ertapisharlik belgisi bo'yicha tanlab olingan nav namunalardan ikkita o'simlikning hosildorligi va bosh piyozining yirikligi bo'yicha andoza navga taqqoslanganda k-39 «Nomsiz» (Fransiya) va k-137 «K-4» (Koreya) namunalari 6,8-8,8 t/ga hamda 10-20 grammga yuqori ustunlikka ega ekanligi kuzatilgan bo'lsa, k-19 «Nomsiz» (Fransiya); k-63, «BGS 72» (AQSh); k-89 «Nomsiz» (Isroil); k-91 «Nomsiz» (Isroil); k-136 «K-137» (Koreya); k-141 (Koreya) namunalarining hosildorlik va bosh piyozini yirikligi bo'yicha andozaga nisbatan 2,2-9,9 t/ga va 25-75 grammga past natijalari namoyon bo'ldi.

20 ta namunalardan hosildorlik va bosh piyozining yirikligi bo'yicha andozaga nisbatan taqqoslanganda 5 tasida (6,8-12,9 t/ga va 10-40 g gacha) serhosil va yirik, 20 ta namunalardan hosil tizmalarni aniqlashda o'rtacha gektaridan andoza Zafar navidan (36,8 t/ga) yuqori hosil olingan tizmalar ajratib olindi (2-jadval).

k-39 «Nomsiz» (Fransiya); k-64 «BGS 615» (AQSh); k-94, «Nomsiz» (Gollandiya); k-135 «K-2» (Koreya) va k-137 «Nomsiz» (Koreya) namunalari tanlab olindi.

Ushbu namunalardan faqatgina k-39 «Nomsiz» (Fransiya) va k-137 « Nomsiz » (Koreya) namunasi andoza naviga nisbatan 8-23 kunga ertapisharligini ko'rsatdi.

Qolgan k-64 «BGS 615» (AQSh); k-94, «Nomsiz» (Gollandiya) va k-135 «K-2» (Koreya) namunalari andoza naviga nisbatan 7-27 kun keyin pishib yetilganligi aniqlandi.

2-jadval

**Hosildorlik belgisi bo'yicha ajratib olingan namunalarning qimmatli xo'jalik belgilari
(2024-2025 y.y.)**

Katalog raqami	Namuna nomi	Kelib chiqishi	O'suv davri, kun	Bosh piyoz vazni, gr.	Umumiy hosildorligi, t/ga	Tovarbop hosildorlik, %
----------------	-------------	----------------	------------------	-----------------------	---------------------------	-------------------------

k- 58	Zafar, st.	O'zbekiston	148	120	36,8	91,4
k- 39	Nomsiz	Fransiya	140	130	43,6	92,2
k- 64	BGS 615	AQSh	155	150	48,3	82,6
k-94	Nomsiz	Gollandiya	165	160	49,7	86,4
k-135	K-2	Koreya	175	150	48,5	83
k-137	Nomsiz	Koreya	125	140	45,9	95,2

Xulosa qilib aytganda, o'tkazilgan tadqiqotlar asosida bosh piyozning boshlang'ich seleksiya materiallarini shakllantirishda mahalliy navlar va jahon kolleksiyasi tarkibiga kiruvchi duragay hamda navlarning o'ziga xos biologik va xo'jalik foydali belgilarini solishtirish asosida tahlil qilindi. Bosh piyozning hosildorlik belgisi bo'yicha tanlab olingan nav namunalarning hosildorligi va bosh piyozning yirikligi bo'yicha andoza navga taqqoslanganda k-39 «Nomsiz» (Fransiya); k-64 «BGS 615» (AQSh); k-94, «Nomsiz» (Gollandiya); k-135 «K-2» (Koreya) va k-137 «K-4» (Koreya) namunalarning barchasi hosildorlik bo'yicha andoza Zafar navga nisbatan piyoz bosh yirikligi 10-50 grammga va 6,8-12,9 t/ga yuqori natijalar ko'rsatganligi kuzatildi. Tadqiqot davomida har bir forma va navning vegetatsiya muddati, hosildorlik darajasi, piyoz boshi massasi kabi ko'rsatkichlari baholandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Raximov A., Ismoilov A. O'zbekiston sharoitida piyoz seleksiyasi va urug'chiligi. – Toshkent: Mehnat, 1992. – 138 b.
2. Jo'rayev U.M. Piyoz navlari va ularning hosildorlik xususiyatlari. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2001. – 96 b
3. Nurmatov D.N. Piyoz o'simligining agrobiologik xususiyatlari va ularni yaxshilash yo'llari. – Qarshi: Nasaf, 2010. – 120 b.